



TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAJRIBALAR. MODULLI-KREDIT TIZIMI

Turan International University Gumanitar Fanlar va pedagogika fakulteti
Maktabgacha ta'lim SMT-22-CU guruh 4-kurs talabasi
Xolmamatova Muqaddamxon Abdumalik qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy tajribalar, xususan modulli-kredit tizimining joriy etilishi va uning ta'lim sifati, talabaning mustaqil ta'limi hamda akademik mobilligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Modulli-kredit tizimining mohiyati, afzalliklari va ta'lim jarayoniga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim islohotlari, modulli-kredit tizimi, kredit-modul, ta'lim sifati, mustaqil ta'lim, akademik mobillik.

Annotation

This article analyzes modern experiences in the development of the education sector, with particular emphasis on the implementation of the modular-credit system and its role in improving education quality, students' independent learning, and academic mobility. The essence, advantages, and impact of the modular-credit system on the educational process are discussed from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: education reforms, modular-credit system, credit-module, education quality, independent learning, academic mobility.



Kirish

Modulli o'qitish-o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, modulli o'qitishda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AqSh universitetlarida joriy etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan.

1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot „kredit soati“ tushunchasini iste'molga kiritadi. Shunday qilib, 1870 – 1880-yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Kredit to'plash o'lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog'da, baholash tizimi va ta'lim texnologiyalarining takomillashishiga ham olib keldi.

Bolonya deklaratsiyasida ko'zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan - mustaqil ta'limga urg'u qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga xizmat qiladi:



- birinchisi, talabalar va o'qituvchilarning mobilligini, ya'ni bir oliy ta'lim muassasasidan boshqa OTMga to'siqlarsiz, erkin ravishda o'tishini (o'qishni yoki ishni ko'chirish)ni ta'minlaydi;
- ikkinchisi, talabaning tanlagan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha barcha o'quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama – kredit aniq hisoblab boriladi.

Kredit yig'indisi talabaning tanlagan dasturi bo'yicha nimani qancha o'zlashtirganligini namoyon etadi^l

***Kredit-modul tizimi**, bu – ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash*

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Modulli o'qitish ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.



- Modul-faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;
- O'qitishni individuallashtirish;
- Amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- Kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o'qituvchilar tarkibi darajasi;
- tinglovchilar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o'qitishda o'quv dasturlarini to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o'qitish imkoniyati yaratiladi. Ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;



- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarini qo'llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;

- evristik suhbatlar;

- o'quv o'yinlar;

- loyihalash va yo'naltiruvchi matnlar va hokazo.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlanadi:

-fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligini ta'minlanishi;

-har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o'rnatilishi;

-fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;

-tinglovchilar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;

-tinglovchilarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng o'qituvchi ayrim tinglovchilarga fanni individallashtirishni tavsiya etishi mumkin);

-axborotni «siqib» berish natijasida o'qitishni jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish.



Dunyoning oliy ta'lim tizimida kredit tizimining bir necha turi mavjud. Bular:

- ECTS-Yevropa kredit tizimi
- USCS -Amerikaning kredit tizimi,
- CATS - Britaniyaning kredit tizimi,
- UCTS - Osiyo davlatlari va tinch okeandagi davlatlarning kredit tizimlari mavjud.

Kredit tizimi ta'lim jarayonida o'qilgan soatlar miqdorini emas, balki erishilgan natijani ko'rsatib beruvchi o'lchov birligidir. Ya'ni mutaxassisni kompetentlik darajasiga baho beruvchi natijaga qaratilgan o'lchov birligidir. Demak, kredit nafaqat o'quv faoliyatiga berilgan baho, balki, bajarilgan o'quv yuklamasini ko'rsatib turuvchi birlikdir.

Bir kredit 36 akademik soatga teng (54 akademik soat 1,5 kreditni tashkil etadi). Har bir o'quv moduli 1 yoki 1,5 kreditga mo'ljallanadi va, odatda, uning soni uchtdan oshmasligi lozim.

Kreditining o'quv jarayonidagi o'rni va u bilan bog'langan unsurlar quyidagi sxemada ko'rsatilgan. Yevropa kredit tizimida birinchi bosqichda (bakalavriat) talaba 180 kreditdan 240 kreditgacha to'plashi mumkin.

Ikkinchi bosqichda (Magistr) 90-120 gacha kredit yig'ish imkoniga ega. Kredit tizimining asosini albatta reyting ball tizimi tashkil etadi. Ta'lim sohasidagi integratsion jarayonlar ilk bor Yevropada boshlangan edi. 1989 yilda Yevropaning minglab tinglovchilari Yevropa hamjamiyatining ERASMUS (European Community Action Scheme for mobility of University students) TEMPUS va boshqa dasturlari asosida chet ellarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

ERASMUS dasturi bo'yicha Yevropa hamjamiyati universitetlari o'rtasidagi tinglovchilar almashinuvi sxemasi dastavval 145 oliy o'quv yurtlarini qamrab olgan edi. ERASMUS dasturining yutuqlaridan biri bu Yevropa



universitetlaridagi o'qitish natijalarini o'zaro tan olish tizimi – (bu) (European Credit Transfer System (ESTS) ni yaratish sinash va amaliyotga keng qo'llash deb aytish lozim. 2001 yilda o'quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi ESTS Yevropaning 1200 ta universitetlarida allaqachon qo'llanilgan edi. 2001 yilda 29 ta Yevropa davlatlari ta'lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasining imzolanishi Yevropa ta'lim hududini yaratilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2020-yil 31-dekabrdagi „Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi qarori asosida „Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida“ NIZOM tasdiqlangan.

Mazkur Nizomda esa kredit-modul tizimiga oid asosiy tushunchalar berib o'tilgan. Unga ko'ra:

GPA (Grade Point Average) – ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

GPA = $K_1U_1 + K_2U_2 + K_3U_3 \dots + K_nU_n : K_1 + K_2 + K_3 \dots + K_n$ ga tengdir.

Bunda:

K – har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U – har bir fan/modul bo'yicha talaba to'plagan baho;

Kredit – ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

Kredit to'plash – ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash;



Talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi – talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut).

O'qish yuklamasi – talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari – ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi

Xulosa

Bugungi kunda ta'lim sohasini rivojlantirishda modulli-kredit tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tizim talabalarning bilim olish jarayonini shaffof va moslashuvchan tashkil etish, mustaqil ta'lim ulushini oshirish hamda ta'lim natijalarini aniq baholash imkonini beradi.

Modulli-kredit tizimi xalqaro ta'lim standartlariga mos kelib, talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida akademik hamkorlik va mobillikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, ta'lim jarayonining samaradorligi oshib, raqobatbardosh va zamonaviy kadrlar tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qiyosiy pedagogika fanidan o'quv uslubiy majmua. Mambetyarov Sharyar. Nukus 2022
2. <https://mavzular.uz/>
3. <https://translate.google.com/>
4. <https://uz.wikipedia.org/>
5. “Kredit-modul tizimi haqida asosiy tushunchalar” (3 aprel , 2023). 2023-yil 4-aprelda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 17-sentyabr.